

O'ZBEKISTONDA BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

Muqimov Asrorjon Rasulovich,
Bojxona instituti mustaqil izlanuvchisi
e-mail: asrorjon.mukimov.0505@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada bojxona to'lovlarining mamlakat iqtisodiy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni, ularning fiskal va tartibga soluvchi funksiyalari hamda tashqi savdo jarayonlariga ta'siri ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot davomida bojxona to'lovlarining davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi ahamiyati, ularning stavkalari va undirish mexanizmlarining takomillashuvi natijasida tushumlar hajmining o'sish tendensiyasi statistik ma'lumotlar va ularni qo'llashni takomillashtirish yo'llari ilmiy asosda yoritilgan.

Kalit so'zlar: bojxona to'lovlari, import boji, aksiz solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, bojxona yig'implari.


Hozirgi sharoitda bojxona to'lovlari mamlakat iqtisodiyoti barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladigan muhim mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda. Ular tashqi savdo aylanmasini oqilona tartibga solish, milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish hamda davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda samarali instrument vazifasini bajaradi.

Ayni paytda, milliy iqtisodiyotni jahon iqtisodiy tizimiga uyg'unlashtirish jarayoni chuqurlashib borayotgan bir davrda bojxona to'lovlari hamda ular bo'yicha taqdim etilayotgan imtiyozlarni takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bunda ilg'or xorijiy tajribani inobatga olish, bozor konyunkturasi talablariga moslashish va samaradorlikni oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Bojxona to'lovlari davlat byudjeti daromadlarini to'ldirishda asosiy moliyaviy manbalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, ular tashqi iqtisodiy munosabatlarni muvofiqlashtirish va tartibga solishda ta'sirchan mexanizm sifatida qo'llanib kelinmoqda. Mazkur to'lovlarning iqtisodiy mohiyati hamda tashqi savdo jarayonlaridagi o'rni izohlash yuzasidan turli davlatlar olimlari tomonidan xilma-xil nazariy yondashuvlar va konsepsiyalar ilgari surilgan. Xususan: D.A. Slepov va Ye.V. Chuykov o'z tahlillarida bojxona to'lovlarini bevosita bojxona organlari tomonidan hisoblanadigan va federal byudjet daromadlar qismini shakllantiruvchi muhim manba sifatida ta'riflaydi. Ularning ta'kidlashicha, bojxona to'lovlari nafaqat moliyaviy jihatdan ahamiyatli, balki tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishning samarali vositasi ham hisoblanadi [1].

I.V.Gomon, M.V.Neparko va N.I.Reshetovlar o'z izlanishlarida bojxona to'lovlarini federal byudjetni shakllantirishda muhim moliyaviy manba sifatida baholaydi. Ularning ta'kidlashicha, mazkur to'lovlar davlatning fiskal maqsadlariga erishishda katta ahamiyat kasb etadi. Olimlarning fikriga ko'ra, bojxona to'lovlari tarkibiga bojxona boji, qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i hamda bojxona yig'implari kabi turli turdagi majburiy to'lovlar kiradi [2].

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, oxirgi yillarda bojxona to'lovlari stavkalari qisqargan bo'lsa-da, mazkur manba orqali davlat byudjetiga kelib tushayotgan tushumlar hajmi barqaror o'sish tendensiyasini namoyon etmoqda. Jumladan, 2015-2024-yillar oralig'ida bojxona to'lovlari umumiy miqdori qariyb 10 barobarga ortgani, ya'ni 63,1 trln so'mga ko'paygani qayd etilgan (1-rasm).



1-rasm. 2015-2024-yillarda bojxona organlari tomonidan undirilgan bojxona to'lovlari, trln so'mda⁵⁴

Bojxona to'lovlari hisobidan davlat byudjetiga tushumlar hajmining ko'payishiga bir qator ustuvor omillar sabab bo'lmoqda. Xususan, tovarlarning bojxona qiymatini belgilash mexanizmlarining yanada takomillashtirilishi, to'lov stavkalari qayta ko'rib chiqilishi, erkin konvertatsiya qilinadigan valyuta kurslaridagi o'zgarishlar ushbu jarayonga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, bojxona tizimida avtomatlashtirilgan axborot texnologiyalarining keng joriy etilishi, xavflarni boshqarish mexanizmlarining amaliyotga tatbiq qilinishi hamda sohadagi me'yoriy-huquqiy asosning bosqichma-bosqich yangilanib borilishi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur chora-tadbirlar bojxona to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq undirishni ta'minlab, natijada davlat moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Bojxona bojlari stavkalarini belgilashda mavsumiylik faktori ham hisobga olinadi. Masalan, Buyuk Britaniyada "Mandarin" (Satsumas) tovari 1-martdan 31-oktyabrga qadar import qilinadigan bo'lsa 12,50% miqdorida bojxona boji stavkasi qo'llaniladi.

⁵⁴ Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Agar ushbu tovar 1-noyabrdan 28-fevralga qadar olib kirilsa, 16,00% miqdorida bojxona boji stavkasi qo'llaniladi [4]. Bu esa yuqoridagi tovarga bo'lgan talab va taklifni avtomatik ravishda tartibga solishga imkon yaratadi.

Rivojlangan davlatlar (AQSH, Yaponiya) tajribasida, import bojxona boji stavkalarini belgilashda tarif eskalatsiyasi asosida, ya'ni tovarning qayta ishlanganlik darajasiga qarab stavkalarni belgilash mexanizmi joriy etilgan. Bunda importda xomashyo tovarlar import bojxona boji stavkalari juda past yoki ozod qilingan bo'lsa, yarim tayyor mahsulot va tayyor mahsulot uchun import bojxona boji stavkalari mos ravishda o'sib boradi [5].

Rivojlangan davlatlar amaliyoti hamda o'tkazilgan tahlillar natijalaridan kelib chiqqan holda quyidagi amaliy takliflarni ilgari surish mumkin:

oziq-ovqat mahsulotlarining ayrim turlari bo'yicha tarif eskalatsiyasi tamoyilini qo'llash, ya'ni mahsulotning qayta ishlash darajasiga qarab bojxona stavkalarini bosqichma-bosqich belgilash mexanizmi joriy etish maqsadga muvofiq;

mamlakatimizda meva-sabzavot mahsulotlarining ayrim pozitsiyalari bo'yicha mavsumiy bojlar amaliyotini qo'llashni yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

Mazkur takliflar ichki bozorni himoya qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash hamda tashqi savdo siyosatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Slepova D.A., Chuykova Ye.V. Tamojennye plateji, ischislyayemye tamojennymi predstavatelyami kak istochnik formirovaniya doxodov federalnogo byudjeta Rossiyskoy Federatsii. *Ekonomika i upravleniye: novye vyzovy i perspektivy*. 2016;(11):192-196.

2. Gomon I.V., Neparko M.V., Reshetova N.I. Tamojennye plateji kak osnova formirovaniya federalnogo byudjeta. *Ekonomika i predprinimatelstvo*. 2017;(9-3):37-40.

3. Tariflar va savdo bo'yicha bosh kelishuv (General Agreement on Tariffs and Trade 1994 — GATT 1994)ning III moddasi 2-bandida qayd etilgan. https://www.wto.org/english/docs_e/legal_e/gatt47_e.pdf

4. https://assets.publishing.service.gov.uk/government/uploads/system/uploads/attachment_data/file/1003574/gsp-consult-information-pack.pdf

5. <https://studfiles.net>.